

BADIIY MATNDA IRONIK BAHO NAMOYON BO'LISHINING PRAGMATIK IMKONIYATLARI

Pardayev Z., Normo'minov Sh.T.

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy matnlar tahlili, yozuvchining so'z qo'llash mahorati, uning o'xshatishlardan, ironiyalardan foydalanishida o'ziga xos uslubga ega ekanligi, ijodkorning mahoratini belgilashi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari aks etadi. Poetik ma'nosi ustun, sof lirik badiiy matnlar tahlilining samarali usullarini qidirib topish va amalda qo'llash lingvopoetika sohasi bilan shug'ullanuvchi olimlar oldida turgan dolzarb vazifalardan ekanligi qay etiladi. Badiiy uslubga xoslangan matnlar orasida badiiy matnni tahlil qilish nihoyatda qiyin va murakkab jarayonligi haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: *so'z, badiiy matn, badiiy matn tahlili, so'zlarning joylashuv tartibi, konseptual ma'nosi, poetik ma'nosi, yaxlit tahlil qilish, lingvopoetik tahlili, poetik ruh.*

Аннотация

В данной статье анализ поэтических текстов, мастерство поэта в использовании слова, наличие у него уникального стиля в использовании сравнений и ироний, а также определение мастерства художника нашли отражение в научных изысканиях исследователей. Отмечается, что поиск и применение эффективных методов анализа чисто лирических поэтических текстов с высшим поэтическим значением является одной из актуальных задач, стоящих перед учеными, работающими в области лингвопоэтики. Говорится, что анализ поэтического текста является чрезвычайно трудным и сложным процессом среди текстов, характеризующихся художественным стилем.

Ключевые слова: *слово, поэтический текст, анализ поэтического текста, расположение слов, понятийное значение, поэтическое значение, целостный анализ, лингвопоэтический анализ, поэтический дух.*

Abstract

In this article, the analysis of poetic texts, the poet's skill in using words, his unique style in using comparisons and ironies, as well as the definition of the artist's skill are reflected in the scientific research of researchers. It is noted that the search and application of effective methods for the analysis of purely lyrical poetic texts with the highest poetic meaning is one of the urgent tasks facing scientists working in the field of linguopoetics. It is said that the analysis of a poetic text is an extremely difficult and complex process among texts characterized by an artistic style.

Keywords: *word, poetic text, analysis of poetic text, arrangement of words, conceptual meaning, poetic meaning, holistic analysis, linguistic and poetic analysis, poetic spirit.*

Tilda illokutiv aktning amalga oshishida emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi vositalar ko'p bo'lib, ulardan biri ironiya hisoblanadi. "Ironiya – grekcha eironeia (bilib bilmaganga olish) so'zidan olingan. Ba'zan avtor voqeani bamaylixotir, jiddiy holda hikoya qiladi-yu, ammo so'zlarni o'z asl ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llab, biror kishi yoki hodisa ustidan kesatq bilan, masxaraomuz yashirin kuladi. So'zlar va iboralarning kesatq va piching bilan o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi ironiya (kinoya) priyomi deyiladi" [1:241].

Ironiyada asosan salbiy munosabat ifodalanadi. Ironik munosabatni modallik kategoriyasiga kiritish mumkin. U nutq birliklarining o'zaro aloqasini ta'minlovchi, zanjir – ko'prikdir. Ironiya nutq hodisasi sifatida xususiy, yolg'iz subyektiv baho anglatib modallikning salbiy ko'rinishi hisoblanadi [2:6].

Muloqot jarayonida obyektiv voqelikdagi predmetlar, voqea-hodisalar to'g'risida qarashlarning nomutunosibligi so'zlovchining adresat xatti-harakati, fikrlariga nisbatan istehzoli, kinoyali munosabatda bo'lishi ironiya nutqiy aktini yuzaga keltiradi. Bunda so'zlovchi fikrida ifodalanayotgan ma'no va gap sematikasi o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi:

- *Menikiga kelmasa, uyingga chaqir. Bo'lmasa... choyxona bor. Bitta osh mendan.*

- *O'h-ho'... juda kattaga tushasan-ku, a? Oshnam, hamyoning ko'tara olarmikin buncha xarajatni? – dedi Jalil piching bilan. Asadbek unga bir sapchimoqchi bo'ldi-yu, uning quvlik bilan jilmayganini ko'rib, shashti pasaydi. "Ponani pona bilan chaqiradi" deganlariday o'zi ham piching bilan javob qaytardi:*

- *Hamyonim ko'tarmasa Jalilboyvachcha degan oshnam bor, qarab turmas axir. (Tohir Malik).*

Yuqoridagi diskurs yengil kinoya, piching asosiga qurilgan bo'lib, so'zlovchi adresat harakatini masxara yoki o'tkir kulgiga asoslanmagan tarzda yengil kesatq bilan baholamoqda. Adresat javobining ham piching shaklida ekanligi muloqotchilarning o'zaro munosabati samimiy ekanligini ko'rsatadi. "Oshnam, hamyoning ko'tara olarmikin buncha xarajatni?" nutqiy tuzilmasining mazmuni Asadbekning moddiy ahvoli qanday ekanligiga ishora qilish yoki tasdiqlash bilan bog'liq emas. So'zlovchi nutqidagi qarama-qarshi semalarni anglash hamda bu tuzilmani kinoya sifatida idrok etish tinglovchining ifodalanayotgan fikrlarni va nutqiy vaziyatni qay darajada qabul qilishi va baholashi bilan bog'liq.

Ironiya nutqiy aktining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, so'zlovchi o'z kommunikativ maqsadiga erishishda kesatq, piching xarakteridagi so'z va jumalarni tanlaydi. Ironiya aktining yuzaga kelishida so'zlovchi munosabati muhim

o‘rin tutadi. Uning nutqidagi propozitsiya ironiyaning qanday shaklda bo‘lishini belgilab beradi. Masalan, quyidagi diskursda komissiv akt asosiga qurilgan so‘zlovchi nutqi, ya‘ni uning “hozirgi avlod kommunizmida yashashi” to‘g‘risidagi fikrlari masxara, kulgi bilan yo‘g‘rilgan ironiyani yuzaga keltirgan:

- *Dakalatchi aka, bizning ongimizni oshirish uchun bittagina savolimga javob bersangiz bas, - dedi Sultonali kinoya bilan, - bolaligimizda Xuruchchev degan poshshoyimiz “Hozirgi avlod kommunizmida yashaydi”, deb va‘da qilgan edi. Men “kommunizmida yashayapmiz”, deb xotirjam yursam, siz bugun kelib: “kommunizm uchun kurash hal qiluvchi pallaga kirdi”, deyapsiz. Qaysi biri to‘g‘ri?*

- *Bilasizmi, o‘rtoq, biz hozir **kommunizm ostonasidamiz**. Obrazli qilib aytganda, **bir oyog‘imiz rivojlangan sotsializm**da, yana **bir oyog‘imiz esa kommunizm**da turibdi.*

- *Bu ahvolda uzoq turamizmi?*

- *Bu nima deganingiz?*

- *Endi... **ikki oyoqni kerib turaverish osonmas-da. Chatanag‘imiz yirilib ketmasmikin deyman-da?***

- *Siz gapimni to‘g‘ri tushunmabsiz, o‘rtoq. Kommunizm uzoqda emas, ufqda ko‘rinib turibdi... (TohirMalik).*

Ironiya shunday priyomki, yuzaki qaraganda, so‘zlovchi jiddiy gapirayotganga o‘xshaydi, ammo uning tagida haqiqiy ma’noga qarshi bo‘lgan yashirin kulgi yotadi: (1:241)

Men kimman, bilasizmi? – deb so‘radi.

- *Siz podpolkovnik Melixo‘jaevsiz, dedi Soli Murodov o‘zini go‘llikka solib.*

- *Ha, podpolkovnik Melixo‘jaevman, – dedi u kalondimog‘lik bilan. –Men shu yerning xo‘jayiniman. Bu yerda men nima desam shu bo‘ladi. “Qamalsin”, deganim qamaladi, “qo‘yib yuborilsin” deganim ozod qilinadi, tushundingizmi?*

- *Buni-ku, tushundim, lekin boshqa narsani tushunmay turibman.*

- ***Tushunmaydigan odam bu idorada ishlamasligi kerak.***

- ***Haq gapni aytdingiz,** – dedi Murodov so‘ng gapini piching ohangida davom etti: – **tushunmaydigan odam ishlamasligi kerak.***

Boshliq uning nima demoqchi bo‘lganini anglab ijirg‘andi-yu, javobga so‘z topolmadi. (Tohir Malik).

Yuqoridagi diskursda podpolkovnik Melxo‘jaevning “tushunmaydigan odam bu idorada ishlamasligi kerak” gapi ironik munosabatning yuzaga chiqishini ta‘minlagan. Bu gap Melixo‘jaev nutqida tahdid ma‘nosida qo‘llanilayotgan bo‘lsa, Murodov nutqida esa uning Melxo‘jaevga nisbat berilishi o‘tkir kinoyaga asoslangan salbiy bahoni vujudga keltirgan.

Ironiya nutqiy aktida soʻzlovchi oʻz kommunikativ maqsadiga erishishida turli usul va vositalardan foydalanadi. Otaning oʻz oʻgʻliga qilgan nasihatidan olingan ushbu diskursda soʻzlovchi *sen* olmoshi oʻrniga *siz* olmoshini qoʻllash bilan matn mazmuniga piching maʼnosini kiritadi:

*-Litsey? Qanaqa litsey? **Sen** u yerdan ketgansan. Tamom! Litsey ham yoʻq, ustoz ham. **Sen** meni laqillatma! -Ergash bir nafas sukut qilgach, ohangni oʻzgartirdi: sizlashga oʻtdi. Uning sizlab gapirishi, kinoyasi – jonni bittalab sugʻurib olish bilan barobar. Buni Asror yaxshi biladi. -Mana shu uy, mashina, mol-mulk hammasi **sizniki**. **Siz** uchun toʻplayapman. Goʻrimga orqalab ketmayman. Xudo menga ovozni bir umrga bermagan. Ertaga ovozdan qolsam, birov **sizga** bir tishlam non bermaydi. Litseydagi **oʻsha ustozingiz** ham choʻntagingizga bir soʻm solib qoʻymaydi. Kecha toʻy borligini bilmasdingiz, **boyvachcha?** Bilardingiz. Doirachiga qancha berdim, sintizatorchi qancha oldi, **bilasizmi?** Oʻsha pullar uyimizda qolsa teshib chiqarmidi? **Nimangizga kerilasiz**, ayting! (Tohir Malik).*

Koʻrinadiki, soʻzlovchi oʻz fikrlarining taʼsirchanligini oshirish maqsadida ifodaning oʻziga xos uslubini tanlaydi. Bunga u *sen* olmoshi oʻrniga *siz* olmoshini qoʻllash orqali erishadi. Asar muallifi qayd etganidek, “*Uning sizlab gapirishi, kinoyasi – jonni bittalab sugʻurib olish bilan barobar*” boʻladi.

Shunisi xarakterliki, rasmiy doiralarda kinoya oʻta ehtiyotkorlik bilan, implitsit tarzda ifodalanadi. Soʻzlashuv nutqida muallifning adresat ustidan kulishi, masxaralashi, uning harakatlari va faoliyatiga tanqidiy munosabatda boʻlishi bir muncha qoʻpolroq tarzda kechadi. Uning fikrlari eksplitsit xarakterga ega boʻladi. Ana shu xususiyati bilan u maʼlum darajada sarkazmga yoʻl ochadi. Quyidagi diskursda aynan shu holat kuzatiladi:

Sobitali bu qarashga dosh berolmay koʻzlarini olib qochdi.

–Yonimda edi... dedi biroz duduqlanib. Keyin ishonchsizligini yashirish uchun qoʻshib qoʻydi: - Quchoqlaganim esimda, keyin oʻchib qolibman-da.

*Be... **Sen kayfingda bilmagansan. Xotiningni emas, Teshaboy togʻangning eshshaginimi yo itinimi quchoqlagansan. Ana, basharangni it yalaganga oʻxshaydi.** Menga qara-chi, - Tursunali polvon shunday deb uning yuziga tikilib qaradi-da, bosh chayqab, oʻz gapini oʻzi inkor etdi: -yoʻq, it yalamagan. It bunaqa isqirt basharani yalamaydi. Koʻngli ayniydi. Basharti bilmay yalab qoʻysa ham zaharlanib oʻla qoladi.(Tohir Malik).*

Soʻzlovchining adresat harakatiga baho berishda oʻxshatish vositalaridan va inkor usulidan foydalanishi matn mazmunidan anglashilgan piching maʼnosini tobora kuchaytirib, oʻtkir zaharxanda darajasiga olib chiqqan.

Bilamizki, Said Ahmadning koʻplab hikoyalari ironiyaga yaʼni satira va yumorga boy. Said Ahmadning hikoyalaridagi oʻziga xoslik ham aynan shunda.

“Qoplon” hikoyasi tom ma’noda jamiyatdagi ayrim illatli vaziyatlarni ochib berishga, hayotimizning og’riqli nuqtalari yoinki insonlar duch keladigan va ularning dilini yaralaydigan voqealarni izohlashga qaratilgan. Munofiqlik, riyo-korlik, mansabparastlik, xiyonat kabi illatlarni mohirona usulda ochib bergan. Hikoya Tillayevning direktor lavozimiga ko’tarilishi bilan boshlanadi. Voqea-hodisalarning, jamiyatdagi insonlarning hech biri nuqsonsiz bo’lishini istab, ularni inkor etmagan holda zukkolik, topqirlik, hozirjavoblik hazil-askiya bilan munosabat bildiradi. “Qoplon” hikoyasi satirik asarning yaxshi namunasi bo’lib, kishilardagi xushomadgo’ylik, laganbordorlik, o’z manfaati yo’lida andisha mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutish, odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko’rsatish kabi yaramas illatlar tanqidiga bag’ishlanadi. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o’zini hali tonilmagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo’llarini to’plab olgan, hech bir isiloahasiz laganbardorligini oshkora ko’rsatib, xo’jayinning polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan oriyatsiz, ablah bir shaxs qiyofasini ko’rsatib beradi. Tillaev ham uning xotini ham Qurbonboyning kimligini anglamay, ularga qilib yurgan xizmatini o’zlaricha yaxshilikka yo’yib yuradilar. Bu amal vaqtinchalik vazifa uchun qilinayotgan makkorlik ekaninini tushunmaydilar. Shu bois Qurbonboyga ixlosi oshib Tillaev uni mashina yuvuvchidan garaj mudiri muovini vazifasiga ko’taradi, uyi tomini yopib olishi uchun anchagina shifer tunuka tushurib beradi. Qurbonboy esa ishi bitguncha girdikapalak bo’lib, har qanday mayda – chuyda oilaviy ymushlarini orlanmay bajarib, yangi boshliq tayinlanishi bilan Tillaev xanodonidan batamom yuz buradi. Xushomadining asosiy vositasi bo’lgan it „Qoplon“ni olib ketib, yangi rahbarga ham xuddi avvalgiday alfozda taqdim qiladi. Uning surbetligi shuqadar kuchliki, Qurbonboy Tillayevni yangi boshliqnikiida ko’rib qolganida, hatto uyalmaydi ham. Direktorning charm to’nini artib turaveradi. Hatto it Qoplan eski xo’jayinini tanib, dumini likillatib erkanadi. Hikoya so’ngida Tillayev Qoplonni ko’rib “Bu itni taniyman” desa-da, achchiq istehzo bilan aytilgan bu so’zlarni asli Qurbonboyga qarab qo’yib aytadi. Demak, “it” deb Qurbonboyni nazarda tutadi. Yozuvchi bu bilan Qurbonboylar kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarni jamiyatda, insonlar orasida o’rni bo’lishi kerak emas, degan g’oyani ilgari suradi. Said Ahmad ham aynan mana shu mavzuni judayam sodda shaklda hikoyada yoritib bergan. “Qoplon” hikoyasi ironikk ruhda yozilgan asar. Bu hikoya qisqa bo’lgani bilan, mazmuni keng ko’lamlidir. Unda kishilarda uchraydigan xushomadgo’ylik, laganbardorlik, o’z manfaati yo’li hech nimadan tap tortmasdan surbertlarcha ish tutishi, insonlarning amaliga, unvoniga qarab munosabat bildirish singari illatlarga bag’ishlangan asar hisoblanadi. Ya’ni bu illatlar hikoyada keskin tanqid ostiga olinadi. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi orqali

yozuvchi o'zi hali tanimagan rahbarlarning pinjiga kirishning zo'r usullarini, uslublarini topgan, hech bir uyalishsiz o'zining bu illatlarini oshkora namoyish etishdan charchamaydigan, hattoki g'ururi hayvondanda pastroq bo'lgan, hech kimga sadoqat ko'rsatmaydigan, yangi boshliq saylansa unga ham yaltoqlanib ketaveradigan pastkash inson qiyofasi ochib beriladi. Tillayev uni juda hurmat qila boshlagan edi, lekin uning xatti-harakatlari oxirida o'zining it bilan tenglashtirilishiga sabab bo'ldi, ya'ni "Bu itni taniyman" deya Qoplonga emas, balki Qurboyga qaraganidan ham ko'rishimiz mumkin.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, ironiya nutqiy aktida so'zlovchi va adresatning o'zaro yaqinlik darajasi ham ma'lum ahamiyatga ega. Shunga bog'liq holda dialogik nutqda ironiyaning yengil ko'rinishlari ko'p uchraydi va ular askiya, payrov xarakterida bo'ladi. Bu quyidagi diskursda ham ko'rinadi:

...Otangni o'tirg'izib, qo'ying shu eshakni, yo'q qiling, desam, eshagini avlodini gapirib ketsa degin... Hozirgi mingan eshagini o'zi tug'dirganmish, uning enasini buvisini buvisi tug'dirganmish. Endi, bu yog'ini qara, shuniy-chun o'sha eshakni oti Buishakmish, uni onasini achasi tug'dirgani uchun Achashakmish, uning buvosining buvosini tug'dirgani chun Buvoshakmish... Shunaqa deganidi, menam bopladim: So'pi, dedim, bo'lmasa, siz tug'dirganiyiz So'pishak bo'larkan-da... (Tohir Malik).

Poetik matnlarda ironik munosabat yanada yorqin namoyon bo'ladi. Omon Matchonning «Xafa xo'roz» she'ridan olingan quyidagi she'rga e'tiborimizni qaratamiz:

Qaysi kuni ko'rib qoldim / Bitta xafa xo'rozni: Biram shalvirab qoptiki / Tanimadim shovvozni! / Qizil toji qorayibdi, / Yonboshiga osilib. Bir don topsa, do'stlarini "G'ut-g'ut"lash yo'q yozilib / Tongdan hatto ko'ngli sovub / Qichqirmoqni tashlabdi / Ichkilikka, tamakiga / Ruju qo'ya boshlabdi. – Ye, – deydi u, – jonga tegdi / Chekkan g'amlarim. Topshirdim men xo'rozlikni, Yeplayversin "zam"larim.

Ironik mazmun asarning badiiy-estetik qimmatini, ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Sharq folklori va adabiyoti namunalarida majozning turli shakllari ko'plab uchraydi. Taniqli shoir Omon Matchon insonlarga xos qusur va illatlarni xo'roz obrazi orkali juda mohirlik bilan yoritib bergan. Ironiya nutqi aktida tashqi ko'rinish, holati, xarakteri yoki jismoniy kamchiligi kinoya uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi matnda ana shunday detallar ironik aktning vujudga kelishini ta'minlashda muhim uslubiy vositaga aylanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi:

*Qiladilar dag'dag'a /
Jim turaymi shuncha jo'ja /*

Bo'labersa tabaka /
Ammo bitta yomon ig'vo /
Hammasidan o'tibdi:
"O'ynashlari ko'p..." – deb kimdir /
Yumaloq xat bitibdi!
Menda ne ayb!
Buyam biror /
Ko'rolmasning ishi-da:
Nima qilay, bitta bo'lsam /
Qirq tovuqning ichida/
Bas, hammasi jonga tegdi /
Yetar chekkan g'amlarim /
Xo'rozlikdan ketganim shu,
– Eplayversin "zam"larim!

Xulosa qilib aytganda, ironiya nutqiy akti inson faoliyatining, ijtimoiy hayotning hamma tomonlariga aloqadordir. U nutqiy muloqotdan kutilgan perlokutiv samarani ta'minlash, nutq obyektini turli lingvostilistik vositalar yordamida baholashda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar

1. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 248 bet.
2. Ibragimova E.I. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalashning usul hamda vositalari. Filol. fan.nomz... diss. avtoref. –Toshkent, 2001. 22 bet.
3. Воҳидов Э. Сайланма. Биринчи жилд. Ишқ савдоси.. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти, 2000. – Б. 44.
4. Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1955. – Б. 142.
5. Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 198.
6. Звезгинцев В.А. О значениях и значимостях в поэзии // Замысел, труд, воплощение. – М.: Наука, 1977. – С. 12.

Pardaev Zafar,

dotsent, filologiya fanlari nomzodi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

pzafar441@gmail.com

Normo'minov Sherzod To'ychiyevich,

dotsent, filologiya fanlari bo'yich falsafa doktori, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika

instituti, Samarqand, O'zbekiston sherzod088@gmail.com